

“PEDAGOGIKA” TA’LIMIY-AXLOQIY FAN SIFATIDA

*Uzoqjonova Moxinur Diyorbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
mixinruzoqjonova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglar ijtimoiy - gumanitar va ixtisoslik fanlari qatorida pedagogika va psixiologiya fanlarini o‘qitish metodikasini, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bir qatorda pedagogik fikrlar tarixini ham bilishlari talab etilishi bayon etilgan. Bu obyektiv qonuniyat ayniqsa, yosh avlod tarbiyachilari ya’ni bo‘lajak pedagoglarga hammadan ko‘proq taalluqli ekanligi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq pedagogikasi, ilg‘or g‘oyalar, pedagogikaning kelib chiqishi, pedagogikaning asl ma’nosи.

Insoniyat jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida pedagogika fani shakllandi. “Pedagogika” atamasi yunoncha bo‘lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiradi [10]. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinining bolalarini sayr qildirgan, maktabga olib boradigan qullarni “bola yetaklovchi”, ya’ni tarbiyachini “pedagogos” deb atashgan.

O‘zbek xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar insonparvarlik, ochiq ko‘ngillilik, saxovatlilik, poklik, to‘g‘ri so‘zlik, haqiqatgo‘ylik, rostgo‘ylik, yaxshi qo‘schnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo‘lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi [9]. O‘zbek xalq pedagogikasidagi ilg‘or g‘oyalar yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma’rifatli, bilimli va kasb-hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini mujassamlashtirgan, barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

Ma’lumki, o‘zbek xalq pedagogikasida farzandli bo‘lish, o‘z farzandini jasur, botir va barkamol inson qilib tarbiyalash alohida o‘rin tutadi. Darvoqe, bola ko‘rish va tarbiyalash baxtiga tuyassar bo‘lgan onalarning “alla” aytmaganligini tasavvur qilish mumkin emas. Abu Ali ibn Sino ona allasining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ta’riflaydi: “Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak [8]. Biri bolani sekin-sekin tebrating, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa-allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolalarning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhiyoti bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi Xalqimizda bolaning fe’l- atvori, badnafs, berahm bo‘lishi yoki insofli, diyonatli, mehr-shafqatli

bo‘lishi uni tug‘dirishga yordamlashgan ena (doya)ga va onaning sehrli hamda mehrli allasiga bog‘liq degan naql borligi bejiz emas. Alla orqali chaqalloqqa singdirilgan insoniy fazilatlar sog‘lom avlod va barkamol shaxs kamolatida onalar va doyalarning mas’uliyati katta ekanligidan dalolat beradi [11].

Pedagogika tarixi fanining manbalariga quyidagilar kiradi: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Xalq og‘zaki ijodi”, “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy bitiklari”, Hadislar, Al- Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Koshifiy, Ulug‘bek, Amir Temur va boshqa mutafakkirlarning, shuningdek, ma’rifatparvar shoirlar va jadidlaming pedagogik asarlari, turli davrlarda yaratilgan o‘quv rejalar, dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, arxiv materiallari va ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir boshqa hujjalari [7].

Ayrim olimlar tarbiyani biologik hodisalar qatoriga kiritadi va tarbiya tarixini inson zotining evolutsion rivojlanishi nuqtayi nazaridan talqin etadi.

Zero, boshqa ijtimoiy hodisalar singari ta’lim-tarbiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ham ma’lum obyektiv qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi. Pedagogika tarixi fani vazifalaridan biri ana shu obyektiv qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Ma’lumki, ijtimoiy fanlarning qonuniyatları ham obyektiv xarakterga ega [6]. Ular ma’lum joyda, mamlakatda ayrim kishilar tomonidan ochilishi, kashf etilishi mumkin. Lekin bu obyektiv qonuniyatlarning ta’sir doirasi juda keng bo‘ladi, ayrim millat, mamlakat, mintaqqa doirasi bilan cheklanmaydi [12].

Pedagogika tarixi fanining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va milliy, ijtimoiy hodisa sifatida, shuningdek, jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganish [13];
- ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog‘liq holda yoritish;
- o‘tmishda pedagogika ilmi va ta’lim-tarbiya sohasida orttirilgan ijobiy tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish usullarini ko‘rsatib berish;
- ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotining har bir bosqichida O‘rta Osiyo hududida va jahoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar rivojlanishini va ta’lim-tarbiya holatini tarixan haqqoniy tasvirlash;
- pedagogik-tarixiy bilimlar bo‘lajak pedagoglarning milliy, tarixiy, ma’naviy-pedagogik ongini shakllantirishga faol ta’sir etishini nazarda tutishi [14].

Pedagogika yosh avlod tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o‘tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatları haqidagi ma’lumotlar muhimdir. Hozirgi vaqtida pedagogika bir necha

tarmoqlarga bo‘lingan [15]. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalash va o‘qitish haqida babs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug‘ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma’rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o‘rganadi), hunar-texnika ta’limi pedagogikasi, harbiy pedagogika kabi tizim tarmoqlari mavjud [5].

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida pedagogika fanini takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshiriladi, bir qator zamonaviy darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy pedagogik maqolalar chop etildi. Shu ma’noda “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari” (Safo Ochil). “Pedagogika” (N.G‘aybullayev va boshqalar) [4]. “Pedagogika” (R.Mavlonova va boshqalar). “Mustaqil fikrlash” (V.Karimova va boshqalar), “Pedagogika tarixidan xrestomatiya” (O.Hasanboyeva va boshqalar), “Pedagogika tarixi” (O.Hasanboyeva va boshqalar), “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” (K.Hoshimov va boshqalar), “O‘zbek pedagogikasi tarixi” (A.Zunnunov va boshqalar), “Shaxs va milliy modelning uzviyligi” (Sh.Qurbanov), “Uzluksiz ta’lim DTsning ijtimoiy mohiyati” (R.Axliddinov) [17], “Pedagogika” (Sh.Abdullayeva va boshqalar), “Pedagogika nazariyasi va tarixi” (R.Mavlonova va boshqalar) [18], “Mustaqillik tarbiyasi” va “Milliy tarbiya” (M.Quronov) darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi zamonaviy pedagogika tarixi fani ta’lim mazmunida muhim ahamiyat kasb etdi [3]. Bo‘lg‘usi pedagoglar qadimgi Turon, Turkiston zaminida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlarning xalq pedagogikasini, buyuk mutafakkirlarning pedagogik merosini, milliy pedagogikaning etnopedagogik xususiyatlarini chuqur o‘rganmay turib, O‘zbekiston Respublikasida insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida barpo etilgan adolatli fuqarolik jamiyatida inson huquqlari, uning fenomenini anglamay turib pedagogika fani tarixini va ilmiy-nazariy asoslarini mukammal egallay olmaydi [2].

Pedagogika fanining taraqqiyot bosqichiga e’tibor bersak, uning dastlabki bosqichi xalq pedagogikasi ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Pedagogika tarixini kishilik jamiyati taraqqiyoti yo‘lidagi ta’lim-tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda bo‘lajak har bir o‘qituvchida pedagogik madaniyat va pedagogik mahorat, didaktika tarixiga oid asarlarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi [1].

Darvoqe, pedagogika tarixi umumjahon, shu jumladan, Turon, Movaraunnahr, Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan va hozirda mustaqil O‘zbekistonda yashayotgan barcha xalqlarning ma’naviyat va ta’lim-tarbiyaga oid qadriyatlarini o‘zlashtirish uchun xizmat qilar ekan, bu fan o‘tgan ajdodlarimiz qoldirgan boy pedagogik manbalarni va ularning milliy asoslarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftixon va g‘urur hissini ham tarbiyalaydi. Yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, “Xalqimiz tayanchi -

ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim” [16].

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbek pedagogikasi tarixi. -T.: «O‘qituvchi», 1992. 410 b.
2. Erkaboyeva N.Sh. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanshi (2002-2005-yillar), Monografiya. 120 b.
3. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students’ Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.
5. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
6. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
7. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
8. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students’ Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS/article/view/4083>.
9. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRLIKKA YO ‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – С. 1-128.
10. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415. Retrieved from <https://research-edu.com/index.php/namdu/article/view/309>.
11. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 321-324.
12. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>.

13. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6821>.
14. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. qizi. (2024). O‘qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278–282. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6917>.
15. Madaminjonovna M. M. et al. ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 51-55.
16. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM ta’limi tizimi. Science and Education, 4(9), 344–347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.
17. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. Science and Education, 4(10), 365–368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.
18. Uzoqjonova, M. (2024). EKOLOGIK MA’DANIYATNI YOSHLAR ONGIGA PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA SINGDIRISH. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(4), 99–100. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/72>.